

Германиядан келган савол

21:13 / 24.04.2016 7630

Assalomu aleykum Shayx hazratlari,

Men Olmoniyada hozirgi kunda tahsil olmoqdaman va universitetda bir bolaning mani musulmon davlatidan kelishimni bilishi va unga siz haqingizda aytganimdan keyin bitta savolni so'rab berishni juda ham iltimos qildi. Aslida uning hatini sizga tarjima qilib yozib yuborishni ma'qul ko'rdim (eng quyida shubhaga bormasligingiz uchun hatning asl nusxasini ham qo'shib qo'ydim).

Sizdan ming bor uzr so'rayman bu tahlit savollar bilan bezovta qilganim uchun, ammo Olmoniyada fiqhiy masalalarni so'rash uchun biror Mufti yo'q. Juda ko'plab imomlar mavjud, ammo har birining fikri har-hilligi odamni chalkashtiradi. Shuning uchun sizdan maslahat so'rashni lozim topdim.

Mening ismim Usmon va 3 yil muddat avval musulmon bo'ldim. Universitetda Sharqshunoslik va Iqtisodiyot sohalarini tehsil olmoqdaman. Men uylanganman va juda kam pul ishlab topaman.

Onamning holasining eri menga bir miqdordagi pulni me'ros qilib qoldirdi. U musulmon emasdi va menga o'zining me'rosining 1/9 qismini qoldirdi, bu miqdor men uchun juda ham katta miqdordagi pulga barobar. Internetdan o'rgangan bilimlarimga ko'ra bu pulni sadaqa qilib yubormoqchi edim. Ammo bir islom fiqhini tushungan birodarimiz aytdiki, ya'ni men bu pulni sovg'a sifatida qabul qilsam bo'lar ekan, chunki men u odam me'rosini olishi shart bo'lgan meroshor emasman (ya'ni farzandi yoki shunga o'xshash). Buning ma'nosi shundaki bu inson menga pulni vasiyatiga ko'ra qoldirgan va u qari edi. Aslida u o'z vasiyatini shunday amalga oshishini bir yil avval qaror qilgan. Uning qoldirgan vasiyatini eshitganimdan so'ng bu pulni umuman qabul qilishni hohlamadim, ya'ni uning bunday qarorini. U insonni yaxshi tanimasdim ham, chunki u mendan juda ham qari bo'lgani uchun bu haqda gaplasha olmasdim. Oilamizda ba'zi muammoli masalalar ham mavjud edi.

Men quyidagi hadisni o'qigan edim, ya'ni hech bir savolga o'rin qoldirmaydigan ma'nodagi:

"Musulmon odam g'ayri musulmondan me'ros qabul qilishga haqqi yo'q, g'ayri musulmonning ham musulmonga me'rosxor bo'lolmasligi kabi. " (Buhari, Hacc, 44; Megazi, 48, Feraiz, 26; Müslim, Feraiz, 1; Ebu Davud, Feraiz, 10)

Mening savolim shundan iboratki, bu me'rosdagi pul menga halolmi yoki ijozat berilganmi, ya'ni iqtisodiy juda ham qattiq qiyinchilikda bo'lganligim bois bu pulni ishlatishimga ruhsat bormi. O'ylashimcha bu pulni ishlata olmasam, oilamning va o'zimning hayotim uchun hozirda boshqa odamlardan qarz olib kun kechirishimga to'g'ri keladi. Ammo men har qanday holatning oldini olishni hohlayman, ya'ni harom pul bilan o'zim va oilamni ta'minlashni aslo hohlamayman.

Alloh sizdan rozi bo'lsin.

wa alaykum usSalam rahmatullah wa barakatu
Usman

Nemis tilidagi asl nusxa:

Salam alaykum rahmatullah taala wa barakatu Sheikh Muhammad Sodik
Muhammad Yusuf,

entschuldigung, dass ich Sie über meine Sache befrage, aber hier in Deutschland gibt es leider keinen Mufti, den man fragen könnte. Es gibt viele Leute Imame und jeder sagt etwas anderes und das ist sehr verwirrend. Deshalb wende ich mich jetzt an Sie.

Mein Name ist Usman ich bin vor über 3 Jahren Muslim geworden. Ich studiere noch ca. ein Jahr Orientalistik und Wirtschaft. Ich bin verheiratet und verdiene kaum Geld.

Ich habe Geld geerbt von dem Mann der Tante meiner Mutter. Er war kein Muslim und ich habe 1/9 seines Vermögens geerbt, was für meine Verhältnisse viel Geld ist. Da ich mich im Internet informiert habe, wollte ich das Geld eigentlich spenden. Ein Bruder der sich mit islamischen Recht auskennt, hat mir gesagt, dass man dieses Geld wie eine Schenkung sehen kann, da ich kein Pflicherbe bin wie Kinder etc. Das heißt dieser Mann hat mir dieses Geld durch sein Testament vermacht und er war alt. Er hat dies ca 1 Jahr vor seinem Tod so entschieden. Als ich das mitbekommen wollte ich das überhaupt nicht akzeptieren, dass er so macht. Aber ich kannte ihn kaum und da er viel älter als ich war, konnte ich nicht mit ihm darüber sprechen. Es gab ein paar schwierige Familienverhältnisse.

Ich hab diese Hadith gelesen, die eigentlich sehr eindeutig sind.

"Ein Muslim kann/darf nicht der Erbe eines Nichtmuslim sein, sowie ein Nichtmuslim nicht der Erbe eines Muslim sein kann/darf." (Buhari, Hacc, 44;

Megazi, 48, Feraiz, 26; Müslim, Feraiz, 1; Ebu Davud, Feraiz, 10)

"Angehörige zweier unterschiedlicher Religionen können nicht einander beerben, als auch einander vererben." (Ebu Davud, 10; Tirmizi, Feraiz, 16; Ibn Mace, Feraiz, 6)

Meine Frage ist jetzt, ist es halal oder erlaubt, dass ich wenn ich in finanziellen Schwierigkeiten stecke dieses Geld nehme anstatt von Brüder auszuleihen? Ich will auf jeden Fall vermeiden, meine Familie und mich von Haram Geld zu finanzieren.

Allah razi olsunuz. Jazakum ALLahu khairan wa barak ALLah feekum.

wa alaykum usSalam rahmatullah wa barakatu
usman

Жавоб

- Ассалому алайкум маҳтарам дин қардошимиз Усмон!

Сизнинг мактубингизни олиб жуда ҳам хурсанд бўлдим. Мухлс мусулмон ўлароқ ҳалолни талаб қилганингиз жуда ҳам яхши. Бу сизнинг бахтингиз. Шариатимиз таълимоти бўйича сиз келтирган ҳадиси шариф асосида мусулмон мусулмонмасдан мерос олиши мумкин эмас. Аммо барча фикҳий мазҳабларимиз, мусулмон инсон мусулмонмас кишининг васият қилган молни олиши мумкинлигига иттифоқ қилишган. Шунинг учун сиз мазкур ғайридин шахснинг васиятига асосан унинг сизга қолдирган пулни олсангиз бўлади.

Бу барча фикҳ китобларимизда бор гап. Сизга жавоб ёзишдан олдин "ал-Фикҳул Иламиюю ва адиллатуху", "ал-Мавсуъа ал-Фикҳияя ал-Кувайтия" ва "Фатвойй ал-Азҳар" китобларини ҳам кўриб яна бир бор аниқладим.

Вассалому алайкум ва раҳматуллоҳи ва баракотуху